



Received: October 1, 2024
Accepted: December 23, 2024
Available online: December 25, 2024

Dildora G‘aybullayeva

Tayanch doktorant
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Dildora Gaybullaeva

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: dildoragaybullayeva@gmail.com
ORCID iD: 0000-0001-9823-8807

ATOQLI OT KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTD O‘RGANISH MASALALARI

ISSUES OF LINGUOCULTUROLOGICAL STUDY OF PHRASEOLOGISMS WITH PROPER NOUN COMPONENTS

ABSTRACT

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolaning maqsadi atoqli ot komponentli frazeologizm (AOKF)larning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarni tahlil etishdan iborat. Muallif mazkur tadqiqotlardagi yutuqlar, aniqlangan muammolar hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar xususida fikr yuritadi. Tadqiqot doirasida turli tillar frazeologik fondiga kiruvchi birliklar nafaqat frazeologizmlar, balki shu tilda so‘zlashuvchilar mentaliteti, turmush tarzi, milliy xarakteri, urf-odatlarini, an‘analari, qadriyatlarini haqida axborot beruvchi lingvokulturmalar sifatida ham o‘rganilishining asosiy omillari ochib berilgan. Shuningdek, tilshunolar tomonidan olib borilgan ishlarda til va madaniyat fenomenlarining frazeologiya sohasidagi o‘rni va ahamiyatiga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlarga munosabat bildirilgan. AOKFlarni lingvokulturologik aspektida o‘rganish tamoyillari bo‘yicha muallifning yakuniy modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotimizning asosiy vazifalari AOKFlarning lingvokulturologik nuqtayi nazardan qay darajada o‘rganilganligini hamda mavjud bo‘lgan lingvistik bo‘shliqlarni aniqlash, tilda AOKFlarning lingvokulturmalaridan biri sifatida talqin etilishini asoslash, frazeologiyaning onomastika va lingvokulturologiya kabi sohalar bilan uzviy bog‘liqligini yoritib berishdan iborat.

Ushbu maqola muammoning o‘rganilganlik darajasini yoritishga qaratilganligi bois unda olib borilgan tadqiqotlarning qisqacha tavsifini berish uchun deskriptiv metoddan unumli foydalanildi.

The aim of this article is to deal with the analysis of research concerning the national-cultural characteristics of phraseologisms with proper names (PwPN). Furthermore, goals, problems and shortcomings are mentioned in various research pertaining to PwPN as a source of the phraseological fund of one or more languages. In the process of research, the main factors of the study of the phraseologisms as linguocultures that provide information about their national mentality, lifestyle, national character, customs, traditions, and values are revealed. The author’s final model will be prepared according to the principles of studying PwPNs in the linguocultural aspect.

The main tasks of our research are to determine the degree of studying of PwPNs in the linguocultural aspect; to determine the existing linguistic gaps; to justify the interpretation of PwPNs as one of the linguocultures, and to shed light on the inextricable connection of phraseology, onomastics and linguoculturology.

Since this article aims at highlighting the level of the study of the problem, descriptive and comparative methods were effectively used in it. Through these methods, we are witnessing the fact, that there are different approaches to the study of PwPNs from the linguocultural perspectives of languages, such approaches based on the linguistic experience and continuous research of the linguist and they have been factors for the highlighted achievements in linguistics.

According to the results observed during the research, PwPNs located at the intersection

Shuningdek, tadqiqot davomida chog'ishtirma metoddan ham foydalanildi, ya'ni mazkur metod orqali bir-biridan farq qiluvchi tillarning frazeologizmlari o'rtasidagi ayrim izomorfik hamda allomorfik xususiyatlari ko'rib chiqildi. Mazkur masalalarni o'rganish asnosida tillararo AOKFlarning lingvokulturologik rakursda izchil tadqiqiga oid turlicha ilmiy qarashlar, yondashuvlar mavjudligiga, bunday yondashuvlarning paydo bo'lishi esa tadqiqotchilarning lingvistik tajribasi hamda to'xtovsiz izlanishlariga asoslanganligiga va shu tariqa tilshunoslik sohasi ma'lum darajada rivojlanganiga guvoh bo'ldik.

Tadqiqot davomida kuzatilgan natijalarga ko'ra, frazeologiya, onomastika hamda lingvokulturologiya sohalarining kesishgan nuqtasida joylashgan AOKFlar ko'plab tillarda faqat makroko'lam doirasidagina o'rganilgan bo'lib, mazkur til birliklarining mikroko'lam qatlamiga kiruvchi frazeologizmlar va ularning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish tilshunoslikda hali yechimini kutayotgan masalalardan biri ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, onomastika, lingvokulturologiya, atoqli ot komponentli frazeologizm, onimik so'z birikmalari, lingvokulturema, madaniy sema, lingvomadaniy yondashuv, kross-madaniy tamoyil, yakuniy model.

KIRISH

Ko'plab manbalarda qayd etilishicha, o'tgan asr boshlarida "frazeologiya" (grekcha "pharsis" fraza, ifoda "logos" ta'limot) atamasi dastlab shveysar-fransuz lingvisti Sh.Ballining "Stilistika bo'yicha qo'llanma" ("Precis de stylistique") asarida qo'llanilgan va olim frazeologiya sohasining birinchi tadqiqotchisi sifatida e'tirof etila boshlagan. "Frazeologiya otasi" o'zining "Stilistika ocherki" (1905) va "Fransuz stilistikasi" (1909) kabi asarlarida nafaqat so'z birikmalari balki frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ham to'xtab o'tgan edi.

O'zbek tilshunos olimi Y. Pinxasov "Hozirgi o'zbek adabiy tili: leksikologiya va frazeologiya" (1969) nomli ishida sohaning dastlabki taraqqiyoti xususida quyidagi fikrlarni berib o'tgan: "Frazeologiyani o'rganish tarixiga ko'z tashlanganda, shu narsa ma'lum bo'ladiki, u dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo'lgan. Ma'lum badiiy asarni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilganda, barqaror so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Bunda o'sha tillarda mavjud bo'lgan frazeologik iboralar o'rganila boshlangan. Shunday qilib, frazeologiya birinchi marta adabiyotshunoslik predmeti sifatida o'rganilgan. Keyinchalik, lug'atlarda so'z ma'nolari izohlangandek, frazeologik iboralar ham to'planib, ma'nolari izohlangan. Shundan so'ng frazeologik iboralar ma'nosi, ularning grammatik qurilishi tilshu-

of the fields of phraseology, onomastics and linguo-cultural studies have been studied in many languages only within the macro-scale, and the phraseologisms included in the micro-scale layer of these language units and their national-cultural characteristics are not studied much yet. So, this learning point is one of the issues that are still waiting for their solution in linguistics.

Key words: phraseology, onomastics, linguoculturology, phraseologism with proper name, onymic word combinations, linguocultureme, cultural code, linguocultural approach, cross-cultural principle, final model.

noslik fanida ham tekshirila boshlangan. Hozirgi davrda frazeologiya masalalari ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik sohalarida o'rganilmoqda. "Frazeologiya" termini dunyo tilshunosligida 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marta qo'llangan. U badiiy asarlarni tarjima qilishda shu termini ishlatishga majbur bo'lgan" [Pinxasov, 1969; 55].

Agar frazeologiya atamasiga oid dalillar xronologiyasiga e'tibor bersak, frazeologiya termini Sh.Balli tilshunoslikda qo'llashidan deyarli to'rt asr oldin Neandr tomonidan ishlatilgan. Xulosamiz shundan iboratki, bu atama tilshunoslik sohasiga adabiyotshunoslik orqali kirib kelgan va Sh.Ballini frazeologiya atamasining asoschisi emas, frazeologiya nazariyasining asoschisi deyish to'g'riroq bo'lardi. Chunki, Sh.Balli frazeologiya atamasini "so'z birikmalarini o'rganadigan stilistikaning bo'limi" ma'nosida fanga kiritgan. Atama, shuningdek, G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunoslari tomonidan yana uchta ma'noda qo'llaniladi: 1) so'z tanlash, ifoda shakli, so'z birikmasi; 2) til, bo'g'in, uslub; 3) ifodalash, iboralar. Bu ingliz lug'atlarida frazeologiya so'zining ta'riflari bilan tasdiqlangan [Kunin, 1996; 6].

Shunday qilib, frazeologiya jadal rivojlanib borayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Ingliz tili frazeologiyasidagi ko'plab lingvistik-frazeologik muammolar, xususan, frazeologizmlar va so'zlarning o'zaro munosabati, frazeologizmlar variantdoshligi, frazeologiyani o'rganish metodlari, frazeologiyaning fan sifatida rivojlanishi, frazeologiyaning onomastika va lingvokulturologiya fanlari bilan o'zaro chambarchas ekanligi kabi nazariy muammolar ko'plab tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. Shu o'rinda tadqiqotimiz obyektining bir qirasi bilan bog'liq bo'lgan onomastika sohasiga ham biroz to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

Ma'lumki, onomastika (onomatologiya, grekcha "nom qo'yish san'ati") barcha turdagi nomlar (odamlar, hayvonlar, afsonaviy mavjudotlar, qabilalar va xalqlar, mamlakatlar, daryolar, tog'lar, odamlarning yashash joylari nomlari) haqidagi fan bo'lib, o'zining terminologik apparati, muammolar doirasi, tadqiqot va o'rganilish usullariga ega keng qamrovli ilmiy lingvistik soha, zamonaviy tilshunoslikning mustaqil bir bo'limi hisoblanadi.

Onomastika obyektiga bo'lgan qiziqish, nomlarning o'ziga xos ichki xususiyatlarini o'rganish masalasi juda qadimgi davrga borib taqaladi. Nomshunoslik muammolari dastlab mantiqshunoslar tomonidan o'rganilgan bo'lib, Aristotel, Demokrit, Geraklit, Y.Polluks, T.Gobbs, Dj.Lokk, G.Leybnis, Dj.Mill, X.Djozef onomastika sohasidagi ilk tadqiqotlarni olib borganlar.

Tilshunoslik doirasida esa P.Kristofersen, A.Gardiner, M.I. Steblin-Kamenskiy, V.Bryondal, L.Yelmslev, K.Togebyu, O.Espersenlar kabi tilshunoslar atoqli otlar leksikasi, ularning turdosh otlar bilan farqli jihatlari, atoqli otlar semantikasi bilan shug'ullanib, lingvistikada onomastika masalalarining dolzarbligini isbotlab berdilar. Atoqli otlarning tilshunoslikda o'rganilish tarixi bilan qiziqqan XX asrning taniqli rus tilshunosi A.V. Superanskayaning lingvistik onomastikada o'rni beqiyos. Uning "Atoqli otlarning umumiy nazariyasi" nomli tadqiqoti onomastikani yangi bosqichga ko'tardi. Keyinchalik esa V.A. Nikonov tomonidan yozilgan "Ism va jamiyat" (1974), V.A. Karpenko qalamiga mansub "Atoqli va turdosh otlarni farqlashning nazariy

asoslari” (1975), A.D. Zverev yozgan “Atoqli va turdosh otlar haqida” (1976), I.I. Kovalik muallifligidagi “Ukrain tilida atoqli va turdosh otlar” (1977) nomli asarlari omma e’tiboriga havola etildi.

Frazeologiya va lingvokulturologiyani birlashtirib turuvchi asosiy omil til hisoblanadi. Har ikki sohada ham tilni turli rakurslarda, turli obyektlarga asoslangan holda o’rganish muhim vazifadir. E’tirof etish o’rinliki, aynan til – madaniyat – inson tizimli formulasi lingvomadaniyatshunoslik fanining obyektini hisoblanadi. V.Gumboldt fikriga ko’ra, “til eng muhim antropologik faktordir: inson faqat tilda o’ylaydi, his qiladi va yashaydi” [Humboldt, 1985; 77].

A.V. Maslovaning ta’rificha, “lingvokulturologiyaning obyektini, lingvistika va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika kabi qator fundamental fanlarning kesishmasida joylashadi” [Maslova, 2001; 35].

Bugunga qadar lingvokulturologiyaning asosiy muammolarini o’rganishda V.fon Gumboldt, E.Sapir, V.D. Vitney, J.W. Povel, F.Boas, B.L. Uorf, A.Viyerzbik, J.Underhill, V.A. Maslova, V.N. Teliya, N.F. Aleferenko, Y.Y. Stepanov, N.D. Arutyunova, V.V. Vorobyov, V.M. Shaklein, Y.M. Vereshchagin, V.G. Kostomarov, V.I. Karasik, S.G. Vorkachev, F.I. Buslaev, A.N. Afanasiyev, A.A. Potebnya, S.G. Ter-Minasovalarning xizmati katta bo’ldi. “Ular o’z ishlarida til va madaniyatning uyg’unligi, madaniy tilshunoslikning predmeti va maqsadlari, lingvokulturologik birliklar, madaniy qadriyatlarining lisoniy aspekti, kommunikativ xulq-atvorning madaniy o’ziga xosligi, madaniyatlararo aloqaning olamning lisoniy manzarasidagi ahamiyati va shu kabi qator lingvistik masalalarni yoritib berganlar” [Kovalenko, 2014; 33]. Shuningdek, o’zbek tilshunoslaridan N.Mahmudov, Z.I. Soliyeva, D.Xudayberganova va Sh.Usmonova kabilar ham soha rivojiga munosib hissa qo’shganlar.

Tadqiqotimiz doirasida o’rganilayotgan frazeologizmlar esa lingvokulturologiya fanining asosiy birligi hisoblangan lingvokulturologik birliklar (lingvokulturema) qatoriga kirib, har bir tilning frazeologik qatlamida shu tilda so’zlashuvchi millatning me’yoriy-axloqiy qoidalari, milliy-axloqiy qadriyatlari hamda asrlar osha shakllangan an’analari o’z in’ikosiga ega. “Lingvokulturema” fenomeni haqida qayd etilgan ko’plab ta’riflar mavjud. V.Vorobyevning ta’rificha, “lingvokulturema murakkab sathlararo birlik bo’lib, unda lingvistik va ekstralingvistik (konseptual yoki mavzu) mazmunning dialektik ko’rinishi mavjud” [Vorob’yev, 2006; 44].

“Lingvokulturema lingvokulturologiyadagi asosiy birlik sifatida nafaqat til segmentlari (lingvistik ma’no), balki madaniyat (tildan tashqari madaniy ma’no) tavsiflarini ham o’z ichiga oladi. So’z (belgi-ma’no) til birligi sifatida tuzilish jihatdan lingvokulturemaning (belgi-ma’no-tushuncha-obyekt) bir qismi kabi ko’rinadi; birinchisining qamrovi til bilan chegaralangan bo’lsa, ikkinchisi obyektiv olamni qamrab oladi” [Apresyan, 1963].

Ta’kidlash o’rinliki, bu xususiyatlar etnik guruh haqida ma’lum bilimlarni egallash bilan birga butun dunyoda lingvistik tasvirni yaratish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi, shuning uchun frazeologiya olamning lisoniy manzarasini tasvirlashda muhim rol o’ynaydi. “Frazeologizm” tushunchasi konseptual sohaning

tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ushbu element orqali olamning lisoniy manzarasini yoritib berishda yaqqol tasvirni gavdalantirish mumkin” [Babyak, 2014; 33]. Qayd etilgan mushohadaga ko‘ra frazeologizm, shubhasiz, lingvokulturremaning bir turi ekanligiga amin bo‘lish mumkin.

“Millatning o‘ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning joni” [Buslayev, 1954; 37] bo‘lgan frazeologizmni madaniy aspektda o‘rganishga oid ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, til birliklarining madaniy talqini, kompyuter frazeologiyasi hamda turli frazeologik guruhlarining madaniy konnotatsiyalari V.N. Teliya, M.L. Kovshova, D.Ch. Malishevskaya, N.N. Semenenko tomonidan o‘rganilgan. Frazeologizmning milliy-madaniy xususiyatlarini E.M. Vereschagin, V.G. Kostomarov, V.G. Gak, O.A. Dmitriyevlarning tadqiqotlarida kuzatsak, frazeologizmlarning har xil turdagi nutqlarda madaniy belgilar sifatidagi tahlilini T.G. Nikitina, V.P. Belyanin ishlarida o‘rganishimiz mumkin. Frazeologizmning milliy o‘ziga xos xususiyatlari, ularning madaniy motivatsiyasini V.N. Teliya, M.L. Kovshova, P.L. Korobka kabi olimlar o‘rgandilar. Shuningdek, V.N. Teliya rahbarligida so‘nggi yillardagi lingvomadaniy tadqiqotlarga asoslangan, “Rus tili frazeologik lug‘ati. Ma‘no. Qo‘llanish. Madaniy sharh” (“Большой фразеологический словарь русского языка. Значение. Употребление. Культурологический комментарий”) (2006, 2009) nomli lug‘at yaratildi. Y.G. Kovalenko ushbu lug‘atni quyidagicha e‘tirof etadi: “Mazkur lug‘at madaniy izohli frazeologik lug‘atlarning maxsus turi bo‘lib, unda idiomalar “madaniyat tili” belgilari, ramzlar, etalonlar, stereotiplar va boshqalar sifatida tavsiflanadi” [Kovalenko, 2014; 33].

Frazeologiyaga lingvokulturologik nuqtayi nazardan izchil yondoshgan V.A. Maslova frazeologizmga oid bir qancha gipotezalarni ilgari surdi. Olimaning aslida rus frazeologiyasi haqida bildirgan quyidagi gipotezalari barcha tillar frazeologik fondiga taalluqli, deyish mumkin:

1. “Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo‘lgan milliy madaniyatning “izi” mavjud.

2. Frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo‘lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy milliy bo‘yoq beradi.

3. Milliy-madaniy o‘ziga xoslikni aniqlashda milliy-madaniy konnotatsiyani ochish juda muhimdir” [Maslova, 2001; 82].

V.N. Teliyaning fikricha, frazeologik birliklar bu tilda so‘zlashuvchi xalqning milliy mentalitetini va qadriyatlar tizimini aks ettira olish qobiliyatiga ko‘ra madaniy hodisalarning lingvistik tasviri deb ta’riflanadi [Teliya, 1996; 286].

V.A. Maslovaning so‘zlariga ko‘ra, frazeologiya olamning lisoniy manzarasining bir bo‘lagi; u dunyoni tasvirlash uchun emas, balki uni sharhlash va baholash uchun ishlatiladi. Frazeologizm ona tilida so‘zlashuvchilarning dastlabki bilimlari, ularning madaniy va tarixiy an‘analari bilan yaqin aloqasini ko‘rsatadi [Maslova, 2001; 82].

B.A. Larin “frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va

o‘z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi” [Larin, 1977; 125] deb hisoblasa, F.I. Buslayev nuqatayi nazariga ko‘ra, “frazeologizmlar o‘ziga xos kichik dunyo bo‘lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o‘z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir” [Buslayev, 1954; 37].

Sh.Usmonovning talqinicha, “frazeologik birliklar har doim subyektga qaratilgan bo‘ladi, ya’ni ular olamni tasvirlash uchungina emas, balki uni talqin qilish, baholash va unga subyektiv munosabat bildirish uchun yuzaga keladi. Frazeologizm va metaforalar aynan mana shu jihati bilan boshqa atov birliklaridan ajralib turadi” [Usmonova, 2019; 91].

A.Mamatovning fikriga ko‘ra, “frazeologik birliklar olam manzarasi bilan assotsiatsiyaga kirishadigan obyektlarning xususiyatlarini qayd qiladi, yaxlit vaziyatni (matnni) nazarda tutadi, uni baholaydi, unga tegishli munosabatni ifoda qiladi. Frazeologik birliklar semantik jihatdan insonni va uning faoliyatini baholaydi” [Mamatov, 2020; 70].

A.Mamatov frazeologizmning milliy-madaniy semantikasini uch qismdan iborat bo‘lishini ta’kidlaydi. “*Birinchidan*, frazeologizmlar milliy madaniyatni yaxlit, kompleks tarzda, o‘zining barcha idiomatik ma’nosi bilan aks ettiradi. *Ikkinchidan*, frazeologizmlar milliy madaniyatni bo‘laklarga bo‘lib, o‘z tarkibida mavjud komponentlari, ya’ni so‘zlar orqali ochib beradi. *Uchinchidan*, frazeologizmlar milliy madaniyatni o‘z prototiplari bilan aks ettiradilar, negaki frazeologik birlik bo‘lib, qolgan erkin so‘z birikmalari ma’lum urf-odatlarini, an’analarini, turmush va madaniyatning tafsilotlarini, tarixiy voqealarni va boshqa ko‘plab narsa va hodisalarni tasvirlaganlar” [Mamatov, 2020; 138].

Modomiki, tilning frazeologik qatlami kommunikatsiyaning o‘ziga xos emotsional-ekspressivligini oshirishga xizmat qilar ekan, lingvokulturologik frazeologiya oldida quyidagi dolzarb vazifalar mavjudligini eslatib o‘tish joiz:

- a) frazeologik birliklarning konseptual mazmunini ochib berish;
- b) frazeologizmlarning ramziy semantikasini o‘rganish;
- d) frazeologik birliklardagi madaniy konnotatsiyalar tipologiyasini ishlab chiqish;
- e) frazeologizmlarning olamning lisoniy manzarasini ifodalashdagi rolini o‘rganish;
- f) frazeologik birliklarni madaniy talqin qilish tamoyillari va usullarini ishlab chiqish.

Qayd etilgan frazeologik muammolarga yechim topish nafaqat tilshunoslik balki frazeologiya sohasida ham ulkan yutuqlarga erishishga yordam beradi.

TADQIQOT METODLARI

Ta’kidlash joizki, “xalq hayotining ko‘zgusi” [Teliya, 1996; 282] hisoblangan frazeologizm orasida “onimik so‘z birikmalari”da [Posoven’ & Firsova, 2015; 86] madaniy-milliy konnotatsiya kuchli bo‘lib, ularda frazeologizm tarkibidagi onim-etalonning o‘ziyoq o‘ziga xos milliy koloritga, madaniy kodga ega bo‘ladi.

Tadqiqotimiz davomida lingvistik tahlil metodlariga kiruvchi deskriptiv

(tasviriy) hamda komparativ (chog‘ishtirma) metodlardan unumli foydalanildi. Ma’lumki, lingvistik tahlil metodlari til birliklarining mohiyatini obyektiv, izchil, tizimli va to‘la yoritishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir metodning o‘ziga xos obyekti va predmeti bo‘lib, olib borilayotgan tadqiqotning asosli bayon etilishiga yordam beradi.

Mazkur tadqiqot ishimizda AOKFlarning aynan lingvokulturologik aspektda o‘rganilishiga oid qator ilmiy ishlarni deskriptiv metodga asoslangan holda ko‘rib chiqdik. Bunda olib borilgan ishlar ketma-ket tasvirlanib, erishilgan yutuqlar qayd etildi. Bir necha frazeologlarning bir obyekttni turli yondashuvda o‘rganganligi o‘zaro tahlil qilindi. Lingvokulturologiya, frazeonomastika sohalarining muammoli vazifa va topshiriqlari tasvirlanib, tilshunoslikda keyingi o‘rinlarda o‘rganilishi joiz deb topilgan masalalar belgilab ketildi.

Maqolada qardosh bo‘lmagan tillarga doir ishlar, ularda berilgan ayrim misollarga to‘xtalib o‘tar ekanmiz, tadqiqot jarayonida chog‘ishtirma metodga bo‘lgan ehtiyoj tug‘ilishi tabiiy. Ushbu tadqiqotda chog‘ishtirma metod orqali frazeologizmlarning turli tizimli tillardagi lingvokulturologik jihatdan universal hamda unikal tomonlari ayrim misollar asosida o‘rganildi va tahlilga tortildi. AOKFlarda kuzatilgan lisoniy izomorfik hamda allomorfik xususiyatlarning xalq tiliga oid bo‘lgan madaniy jihatlariga qay darajada bog‘liqligi ochib berildi.

Deskriptiv hamda komparativ metodlar orqali ko‘rib chiqilgan obyekt va predmetning o‘rganilishi, tahliliy natijalariga ko‘ra tegishli xulosa va takliflar berildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Shu kungacha muayyan bir til va turli tizimli tillar doirasida onomastika hamda frazeologiya fanlarini uyg‘unlashtirgan holda xorij hamda turkiy tilshunoslikda qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biz ushbu uyg‘unlashuv samarasi o‘laroq vujudga kelgan yo‘nalishni “frazeonomastika” deb nomlashni joiz deb bildik [Gaybullayeva, 2023; 138] Ushbu termini qo‘llashda zamonaviy rus frazeologiyasiga 2006-yil O.P. Aldinger tomonidan kiritilgan “olamning frazeonomastik tasviri” hamda “frazeonim” terminlariga asoslandik. Olimaning V.I. Dalning “Rus xalqi maqollari” asarida olamning frazeonomastik tasviri” (“Фразеономастическая картина мира в “Пословицах русского народа” В.И. Даля”) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ushbu terminlar asoslandi va har tomonlama tadqiq qilindi. O.P. Aldinger tarkibida onimlar ishtirok etgan frazeologizmlarni lo‘nda qilib frazeonimlar deb ataydi va ularni “dunyoning frazeonomastik tasvirining tarkibiy birligi” sifatida e’tirof etadi [Al’dinger, 2006; 28].

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan AOKFning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish, ularni lingvomadaniyatshunoslik doirasida chuqur tahlil etish, frazeonomastikaning lingvokulturologiya fani bilan uzviy bog‘liqligini ochib berish ham ko‘plab tadqiqotlarda qo‘yilayotgan muhim masalalardandir. Zero, ikki tilni qiyoslab o‘rganish o‘z-o‘zidan ikki xil madaniyatni, tarixni, diniy va dunyoviy dunyoqarashlarni tahlil qilish, urf-odat-u an‘analarni o‘rganishni taqazo etadi. Mashhur rus tilshunosi G.O. Vinokur ta’kidlaganidek, “tilni o‘rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo‘lgan o‘sha madaniyatning

tadqiqotchisiga aylanadi” [Vinokur, 1959; 211]. Quyida madaniyatning yorqin ifodasi hisoblangan “onim”li frazeologizmlar bir til doirasida va turli tillar tizimida qiyoslab o‘rganilgan ayrim ishlarga to‘xtalib o‘tamiz.

A.V. Urazmetovaning “Toponimlarni frazeologik birliklarning bir qismi sifatida o‘rganishning lingvistik va madaniy jihati (ingliz va fransuz tillari materiallari asosida)” (“Лингвокультурологический аспект изучения топонимов в составе фразеологических единиц (на материале английского и французского языков)”) mavzusidagi dissertatsiyasi AOKFlarning milliy-madaniy aspektda o‘rganilganlik darajasini salmoqli boyitgan asosiy manbalardan biridir. Ushbu dissertatsiya topokomponentli frazeologik birlik (TKF)larning lingvokulturologik xususiyatlari kontrastiv planda (“o‘zini-o‘zganiki” lingvokulturologik oppozitsiyada) tavsiflab berilgan ilk tadqiqot hisoblanib, unda asoslangan lingvokulturologik yondashuv (frazeologizmlarni ma’lum bir millatning kollektiv ongini shakllantiradigan madaniy reprezentantlar sifatida o‘rganish) frazeologizmning milliy-madaniy tabiatini tizimli ravishda o‘rganishga imkon beradi. Dissertantning qayd etishicha, odatda har qanday tilda “o‘z” madaniyati ijobiy baholanadi, ammo ba’zi hollarda esa o‘z vataniga nisbatan istehzo va o‘zini tanqid qilish holatlari kuzatiladi. Mazkur ishda aynan shunday holatlar misollar asosida dalillangan [Urazmetova, 2006; 24].

A.V. Xoxlovaning “Ingliz va ukrain tillarida toponimik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy aspekti” (“Фразеологические единицы с топонимическим компонентом в английском и украинском языках: лингвокультурологический аспект”) nomli dissertatsiyasida esa TKF ingliz va ukrain tillari materialiga asoslangan. Tadqiqotda qiyoslanayotgan tillarning topokomponentli frazeologizmi haqida quyidagi fikrlar qayd etilgan: “Tarkibida toponimlar mavjud bo‘lgan frazeologizmlarning etimologik kelib chiqishiga ko‘ra topokomponentning real yoki noreal obyektga asoslangan yoki asoslanmagani muhim ahamiyat kasb etmaydi. Har ikki holatda ham bunday frazeologizm xalqning milliy-madaniy dunyoqarashini aks ettiruvchi “lingvokulturema” bo‘la oladi. Aslida, kelib chiqishga doir bo‘lgan ekstralingvistik faktorlar ham xalqning, til egasi madaniyatining o‘ziga xos xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shunday ekan, TKF tarkibidagi toponim geografik yoki mifologik mavjud bo‘lishi tabiiy holat sifatida qaralishi o‘rinlidir” [Khokhlova, 2017; 87]. A.V. Xoxlovaning tadqiqotida ingliz madaniyatida pragmatizm, ukrain madaniyatida esa patriotizm kuchli ekanligi TKF tahlili asosida ochib berilgan. A.V. Urazmetova va A.V. Xoxlovaning tadqiqotlarida asosiy o‘xshashlik har ikki dissertatsiyaning so‘nggi bobida solishtirilayotgan tillarda mavjud bo‘lgan TKF ijtimoiy-madaniy faktlarni majoziy asosda aks ettirish parametriga asoslanib amalga oshirilganligida ko‘rinadi. Bu tamoyilga ko‘ra har ikki olim TKFlarni ikki guruhga ajratdi:

1) milliy-madaniy TKF (sof ingliz yoki sof fransuz/ukrain madaniyatini bildiruvchi);

2) madaniyatlaro TKF (boshqa tillardan kirib kelgan, “o‘zga” madaniyatni anglatuvchi).

Mualliflarning ta’kidlashicha, olib borilgan lingvokulturologik tahlil natijalariga

ko'ra, har ikki tilda ham "ko'p asrlik aql-zakovat mevasi va xalqning ma'naviy ijodiy faoliyati" bilan konnotatsiyalangan milliy-madaniy TKF yuqori ko'rsatgichni egallaydi (Ingliz-fransuz: 91% > 81,5 %, ingliz-ukrain: 88% > 80%).

N.V. Dorodneva va Y.N. Yermakovaning "Atoqli ot komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari (rus va ingliz tillari materiallari asosida)" ("Лингвокультурологические свойства фразеологизмов с компонентом-именем собственным (на материале русского и английского языков)") nomli maqolasida esa asosan AKF va TKFlarning madaniy fondagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Mualliflar etimologik nuqtayi nazardan har ikki tilda bir xil bo'lgan frazeologizmlarni "internatsional frazeologizmlar" deb nomladilar. Misol uchun, "ящик Пандоры" – "Pandora's box" (barcha insoniyat falokatlarining manbai), Соломоново решение" – "judgment of Solomon" (puxta o'ylangan, to'g'ri qaror, aqlli fikr), "Пиррова победа" – "Pyrrhic victory" (mag'lubiyatga teng g'alaba) mifologik-antropomim komponentli frazeologizm (AKF)i, "Троянский конь" – "the Trojan Horse" (yashirin xavf), "перейти Рубикон" – "to cross the Rubicon" (qat'iy qadam tashlash, buyuk maqsad yo'lida muhim narsani xavf ostiga qo'yish) kabi mifologik-toponim komponentli frazeologizmi har ikki til madaniyatida uchraydi [Dorodneva & Yermakova, 2013; 236].

Y.N. Yermakovaning Y.Y. Marinova bilan hammualliflikda yozgan yana bir maqolasida Bibliyadagi atoqli otlar bilan yasalgan frazeologizmlar tabiatining lingvokulturologik jihatlarining tahlili yoritilgan. Mualliflarning fikriga ko'ra, OKF olamning lisoniy manzarasining bir qismi ekanligini frazeologik birlikda o'rnatilgan ismning majoziy asosi uzoq o'tmishda shakllangan dunyoqarash xususiyatlarini aks ettirishi bilan bog'lanadi. Ajdodlarning hayotiy tajribasining asosiga aylangan bibliizm-frazeologizmga Xristian axloqiy qarashlari uyg'un ravishda xalqqa singib ketgan falsafa mavjud bo'lib, AOKF tarkibidagi ismlar madaniy simvol hisoblanadi. Tadqiqot davomida olimalar quyidagi fikrni qayd etadilar: "Hozirgi kunga qadar frazeologik birliklarning tarkibiy qismlariga aylangan atoqli otlarning manbalarini aniqlaydigan yagona, umume'tirof etilgan tasnif mavjud emas. Ushbu muammoni hal qilishning mumkin bo'lgan usullaridan biri – atoqli ot komponentli frazeologik birliklarni inson faoliyatining madaniy va ijodiy sohalari bilan bog'liq bo'lgan guruhlariga tasniflashdir" [Yermakova & Marynova, 2013; 164].

A.Vrbints va M.Vrbintslar ingliz va slavyan tillaridagi AOKFlarning lingvokulturologik aspekti xususida tadqiqot olib borganlar. Tadqiqot 172ta ingliz tilidagi va 324ta slavyan tilidagi AOKF tahliliga asoslangan bo'lib, unda ikkala tildagi frazeologik birliklarning universalligi yoki madaniy o'ziga xosligi o'rganiladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, "etimologik jihatdan bir xil bo'lgan AOKF bir necha tillarda tez-tez qo'llaniladi, chunki aynan ular bir xil madaniy va tarixiy fonga ega frazeologizm sanaladi" [Vrbinc & Vrbinc, 2014; 149]. Tadqiqotda qayd etilishicha, ingliz tilida ham slavyan tilida ham antik davrga ishora qiluvchi, yunon yoki rim madaniy merosiga aloqador, ma'lum va mashhur bo'lgan adabiy manbaga konnotatsiyalangan, diniy-mifologik assotsiatyaga ega AOKFni madaniy-universal frazeologizmlar deyish mumkin. Shuningdek, AOKFlarni milliy madaniyatni o'zida

namoyon etuvchi maxsus denotatga ishora qiluvchi birliklar sifatida e'tirof etish ham o'rinli, chunki AOKF komponentlariga kiruvchi onimlar ma'lum bir madaniyatgagina xos bo'lib, aynan shu madaniyatni aniqlovchi kalit so'z bo'lib kela oladi. Shuningdek, olimlar ushbu tadqiqotda chog'ishtirilayotgan tillarda tanlab olingan lug'atlar asosida AOKFlarning etimologik manbasi, komponent tahlili hamda qo'llanilish chastotalariga asoslanib, ularning lingvostatistik tahlilini ham ishlab chiqqanlar.

“Ingliz tilida atoqli ot komponentli frazeologizmlarning milliy-madaniy va semantik-grammatik jihatlari” (“Фразеологизмы с компонентом-именем собственным в английском языке: культурно-специфичный и семантико-грамматический аспект”) deb nomlangan tadqiqot mualliflari E.A. Xomutnikova va Y.V. Legotining ham AOKFlarning madaniy xususiyatlarini o'rganishda o'z o'rnini bor. Ular o'z tadqiqotlarida “Inglizcha-ruscha frazeologik lug'at”da berilgan umumiy frazeologizmlarda 311ta AOKFlarni saralab oldilar va ularning semantik-grammatik hamda milliy-madaniy xususiyatlarini batafsil yoritib berdilar. Ular AOKFlarning lingvokulturologik o'ziga xosligi haqida fikr yuritir ekan, tilda qo'llaniluvchi onimik birliklar bevosita yoki bilvosita so'zlovchilar haqidagi madaniy ma'lumotlarni o'z ichiga olishini berilgan frazeologizm tarkibidagi onimning konnotativ bo'yoqdorlik bilan bog'laydi. Masalan, inglizlar ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lgan “All shall be well, Jack will have Jill” (biror ishning xayrli yakuni) AOKFligini, salbiy bo'yoqdorlik uchun “Jack Katch” (jallod) kabi frazeologizmi qo'llaydilar. Inglizlarda bunday milliy stereotiplarga asoslangan frazeologizm asosan ularning quyi qatlam vakillari tomonidan ishlatilib, ingliz xalqining o'ziga xos ishonuvchanlik xususiyatini ochib beradi. Tadqiqotda yozishilicha, bu kabi onimik frazeologizm metaforaga aylanib ulgurgan bo'lib, olamning lisoniy manzarasini tasvirlashda nafaqat frazeologik birlik, balki madaniy birlik sifatida ham qayd etilishi joiz [Xomutnikova & Legotina, 2018; 73].

Ispan tilidagi AOKFlarning milliy-madaniy xususiyatlarini publitsistik matnlar yordamida Y.O. Shapovalova ochib berdi. U mazkur tadqiqotda ilk marta italyan davriy nashrlari matnlarida AOKFning lingvomadaniy o'ziga xosligi va ularning verbalizatsiyasi haqida so'z yuritdi. Tadqiqotdagi ma'lumotlarga ko'ra, “ma'lum bir til va madaniy hamjamiyat vakillariga tanish bo'lgan ayrim AOKF Italiya tarixi, adabiy an'anasi, tarixiy voqealari yoki adabiy asarlari bilan bog'liq. Masalan, T.Mastrobuning “Soeder l'incontenibile e Laschet il moderato” nomli maqolasida berilgan “il segreto di Pulcinella” (Poshinel siri, ko'pchilik xabardor bo'lgan sir) AOKFligi rus va fransuz tillarida ham qo'llaniladi, ammo ushbu frazeologizm komponenti bo'lgan “Poshinel” obrazi italyanlarning madaniyatiga aloqador bo'lib, italyan madaniyatiga xos bo'lgan ephillik, ayyorlik bilan birga so'zamollik fazilatlarini ham ifodalaydi” [Shapovalova, 2021; 1861]. Shuningdek, tadqiqotda Italiya madaniyatida har qanday qiyin vaziyatdan chiqib ketishga qodir bo'lgan ammo ba'zan o'rinsiz hazil qiluvchilar “il vestito di Arlecchino” (turli rangdagi kostyum; Arlechchino hazili) frazeologizmi yordamida tasvirlansa, rus madaniyatida bu juda salbiy xarakterni ochib beradi. Bu nomuvofiqlik o'rganilayotgan frazeologizm lingvomadaniy o'ziga xoslikning elementi ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi.

AOKFning lingvokulturologik aspektida o'rganilishiga qaratilgan yana bir

xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasining ilmiy yangiligi shundaki, unda fransuz va o‘zbek tillaridagi AKF va TKFning kelib chiqish manbalari an’anaviy ismlar bilan, millat folklori, xalq tarixi va real tarixiy shaxslar bilan hamda badiiy asar personajlari bilan bog‘liq frazeologizmlar asosida aniqlangan” [Kurbonova, 2019; 15]. Natijada turli oilaga mansub ikki til doirasida frazeologizm tarkibidagi dominant antroponim komponentlarning milliy-madaniy xususiyatlari olamning frazeologik manzarasida shaxsning ijobiy va salbiy qiyofasini shakllantirishi isbotlandi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida ikki tilga oid frazeologizm tarkibidagi toponimlar ijobiy (avtostereotip) va salbiy (geterostereotip) tushunchalariga ega ekanligi dalillandi. Olimaning qayd etishicha, fransuz va o‘zbek tilidagi OKFning farqli tomonlari ekvivalentsiz so‘zdan tashkil topganligi, o‘xshashligi esa obrazlilik natijasida yuzaga kelishida yaqqol ko‘zga tashlanadi [Kurbonova, 2019; 23].

G.S. Qurbonovanning AOKF doirasida olib borgan yangi ilmiy izlanishlarining natijalari uning I.A. Jo‘rayeva bilan hammualliflikda nashr etgan “Fransuz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni lingvomadaniy tahlil qilish muammolari” (Problems of linguo-cultural analysis of phraseological units in the French and Uzbek languages) (2021) nomli tadqiqotida o‘z aksini topgan [Juraeva & Kurbonova, 2021; 1291].

Boshqa bir o‘zbek olimasi, AOKFni o‘rganishda o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan M.A. Radjabovanning ilmiy ishi ham e‘tiborga molik. Sababi, M.A. Radjabova o‘z ishida AOKFning lingvomadaniy jihati va tarjima muammolarini ingliz, o‘zbek va rus tillari materialida nihoyatda tushunarli qilib yoritib berdi. Mazkur tadqiqotda bayon etilishicha, ingliz tilidagi “send somebody to Coventry” frazeologizmligi tarkibidagi topokomponent Koventri Angliyaning markaziy shaharlarining birida joylashgan kichik tuman bo‘lib, fuqarolarining askarlarga nisbatan kuchli nafrati askarlar bilan muloqatda bo‘lgan ayollarni ayovsiz toshbo‘ron qilishga sabab bo‘lgan. Shu boisdan, ushbu TKF ingliz xalqining yuqorida qayd etilgan urf-odatiga asoslangan. O‘zbek tilida xalqning mehnatkash dehqonlari va ularning kundalik hayotlarini xarakterlovchi frazeologizmlar ham talaygina. Misol uchun, “Damachining qovunini yemabsiz-dunyoga kelmabsiz” maqoli ham tarkibidagi madaniy sema (Damachi) orqali o‘zida milliy xarakterni namoyon etadi. Rus tilidagi “Белгородский кисель” TKFligi esa rus xalqining qo‘rqmas, matonatli va dono xarakterini ifodalab keladi [Radjabova, 2020; 18].

Z.N. Abdusamadovning “Ingliz va o‘zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari” deb nomlangan dissertatsiyasining “Ingliz va o‘zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili” deb nomlanuvchi uchinchi bobida antroponimik komponentli frazeologik birliklar (AKF)ning o‘rganilishida lingvomadaniy yondashuvning o‘rni va roli izohlangan, ingliz va o‘zbek tillarida AKFning milliy-madaniy o‘ziga xosligi ochib berilgan. Z. N. Abdusamadov zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashning lingvistik-madaniy, kontrastli, lingvokulturologik, kognitiv, pragmatik kabi bir necha yondashuvlari haqida so‘z yuritar ekan, o‘z tadqiqotida lingvokulturologik yondashuvga asoslanib, o‘zbek tilida AKF, asosan, xalq jonli so‘zlashuv qatlamida ijtimoiy milliy-madaniy turmush

tarzining ifodasi sifatida, inglizlarda esa nafaqat jonli soʻzlashuv, balki adabiy tilning turli qatlamlarida ham keng tarqalganligi toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlar beradi. Zero, “oʻrganilayotgan har ikkala tilda frazeologik birliklar tarkibida qoʻllaniladigan kishining atoqli nomi kishi xarakterining inʼikosi, uning feʼli, xulq-atvori, yurish-turishidagi oʻziga xoslikning aksidir. Antroponimda muhrlangan kishining tavsifi frazeologik birlik tarkibida milliy-madaniy tipaj sifatida namoyon boʻladi” [Abdusamadov, 2022; 24].


TKFning lingvomadaniy va tarixiy aspektlari S.T. Xudoyorovanning ilmiy maqolasida ham bayon etilgan. Mazkur taqdiqotda muallif A.V. Xoxlova, A.V. Urazmetovalarning klassifikatsiyalariga tayangan holda, ingliz va oʻzbek tillaridagi topokomponentli frazeologizm tarixiy manbalariga koʻra 5 asosiy guruhga ajratilib, har bir guruhga misol sifatida qayd etilgan frazeologizmlarning milliy-madaniy oʻziga xosliklari sharhlab berilgan. Shuningdek, S.T. Xudoyorova A.V. Xohlovadan farqli ravishda topokomponentning haqiqatan mavjudligi yoki toʻqimalarga asoslanganligiga koʻra real toponimlardan tashkil topgan frazeologizmning toʻrt guruhini tasniflab berdi. Uning fikricha, real topokomponent til soʻzlashuvchi xalqning geografik joylashuvini (*London particular / Mirzai azimda ming Xorunning xazinasi-yu, tuman Jamshidning davlati bor*), iqtisodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini (*Windsor chair / yeyishing – sholgʻomu, kiyishing – Margʻilonning sirli saroyi*), shu hududda istiqomat qiluvchi aholining boshqalarda uchramaydigan alohida xususiyatlarini (*Attic salt / yonida bir puli yoʻq Gʻirvonga hokim*) va topokomponentlaridan orasidagi masofani (*from China to Peru / oʻzbek tilida kuzatilmadi*) bildirar ekan, har bir jihat xalq madaniyatining maʼlum qirralarini ochib berishga xizmat qiladi [Xudoyorova, 2021; 201].

N.A. Turapovanning “Yapon va oʻzbek tillaridagi muqobilsiz frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili” (Лингвокультурологический анализ безэквивалентных фразеологизмов японского и узбекского языков) nomli ilmiy maqolasida hozirgi zamon yapon va oʻzbek tillarining frazeologik tarkibi lingvokultura nuqtayi nazaridan tahlilga tortilgan. Tadqiqotda qayd etilishicha, frazeologiyaning ikki jihatdan juda muhim; birinchidan, u xalqning lugʻat boyligi bilan bir qatorda fon bilimlarning yadrosi hisoblanadi, ikkinchidan, koʻplab frazeologizmlar ichki planida milliy-madaniy komponent yotadi. N.A. Turapovanning mazkur ishida yapon sport obyektlarining nomlari, Yaponiya tarixi va milliy ismlari ishtirok etgan talaygina onimik birikmalarning (弘法筆を選ばず (Ko:bo: фудэ-о эрабадзу) – мастер Кобо кисти не выбирает, ふるなの弁 (фуруна но бэн) – букв. красноречие Пурны (Пурна – один из 10 учеников Будды, отличившейся изысканностью речи) – блестящее красноречие в контексте преодоления каких-либо трудностей быстрым путём v.b.) tahlilini kuzatish mumkin. Maqolada oʻzbek tilidagi misollar appellativ komponentli frazeologizm orqali keltirilgan. Chunki, hech bir tilning atoqli otlar bilan yasalgan frazeologizmlarining boshqa tillarda ekvivalentlari mavjud emas. Aynan mana shu xususiyat ham AOKFlarning betakror birikmalar, lingvokulturemalar ekanligidan darak beradi [Turapova, 2020; 67].

Oʻrganilgan ilmiy tadqiqotlar “til – madaniyat – inson” tizimli formulasida frazeologizmlarni har bir tilning unikalialari hisoblangan lingvokulturemalar sifatida


e'tirof etish qanchalik o'rinli ekanligini ko'rsatdi. AOKFlarning lingvokulturologik aspektda o'rganish antroposentrik paradigmaning asosiy mohiyatini ko'rsatuvchi *madaniyat, jamiyat, tafakkur* tushunchalari bilan chambarchas bog'liqligi uchun AOKFlarning aniq shakllanish omillari quyidagicha belgilandi (1-rasmga qarang):

1-rasm. Lingvokulturologik aspektda AOKFlarning shakllanish omillari



Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ekstralingvistik omillar AOKFlarning kelib chiqishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, AOKFlarning madaniy xususiyatlarni tadqiq etishda *lingvomadaniy yondashuv* hamda ushbu yondashuvni ochib berishda samarali qo'llaniluvchi *madaniy va kross-madaniy tamoyillarning* mazkur til birliklarini o'rganishda ilmiy-nazariy potentsialligi yuqori. Ushbu konsepsiyaning amalda tatbiq etilishi konkret ishchi mexanizm ishlab chiqish zaruratini tug'diradi. Bizningcha, AOKFlarning milliy-madaniy xususiyatlarini quyidagi yakuniy model asosida ochib berish mazkur til birliklarini izchil o'rganishga yanada yordam beradi (2-rasmga qarang):

2-rasm. AOKFlarni lingvokulturologik aspektda o'rganish bo'yicha yakuniy model



AOKFlarning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishda yuqorida berilgan ishchi mexanizm nafaqat frazeologiya va lingvokulturologiya, balki umumiy tilshunoslikda antroposentrik paradigma asosida o'rganilayotgan barcha sohalar uchun ham aniq formula bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rinda qayd etish joizki, har bir frazeologizm ichki mazmunidagi o'ziga xos madaniy fonga egaligi frazeologizmi madaniy-milliy kolorit bilan ta'minlaydi. Frazeologizmlarni o'rganishdagi asosiy vazifa lingvokulturologik o'ziga xoslikni aniqlashda o'zaro ichki konnotatsiyani ochib berish hisoblanadi. Frazeologiya fani olamning lingvistik tasvirining ajralmas bir qismi bo'lib, bu sohaning o'rganish obyekti bo'lgan frazeologizmlar esa xalq madaniyatining uzoq rivojlanish jarayonini aks ettiruvchi madaniy munosabat vositalari hisoblanib, avloddan avlodga o'tmishdan xabar berib turadi. Atoqli otlar bilan yasalgan frazeologizmlarning leksik hamda lingvokulturologik birliklar sifatida turli tillar tizimida tutgan o'rni beqiyos ekanligini inobatga olib, lingvokulturologiyaning frazeonomastika bilan chambarchas bog'liqligiga yana bir bor amin bo'lish mumkin. Bunday birliklar tarkibidagi onimlar xalq dunyoqarashi, turmush tarzi urf-odatlarini, milliy-madaniy xususiyatlarni yaqqol namoyon etadi. Aynan shuning uchun ham, AOKFlarni boshqa frazeologizmlardek umumiy semantikaga ega birliklar sifatida qarab bo'lmaydi, sababi ularning komponentlari orasidagi onimlarning xususiylik kasb etuvchi madaniy semalardir.

AOKFlarning lingvokulturologik aspektida o'rganilishiga oid qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bizningcha, haligacha bu sohada frazeologik hamda lingvokulturologik bo'shliqlar mavjud. Amalga oshirilgan ishlarning aksariyatida antroponim komponentli frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlariga urg'u berilgan, topokomponentli frazeologizmlarning olamning lisoniy manzarasini tasvirlashdagi o'rni asoslangan. Shuningdek, etnonim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy rakursdagi verbalizatsiyasiga oid masalalar qisman yoritilgan. Frazeonomastik nuqtayi nazardan qaraganda yuqorida berilgan onimik so'z birikmalari faqat makroko'lam doirasida bo'lib, mikroko'lamga kiruvchi onimlar va ular ishtirok etgan frazeologizmlarning o'rganilishiga oid tadqiqotlar yetarli emas. Keyingi tadqiqotlarda AOKFlarni nafaqat makroko'lam doirasida balki mikroko'lam doirasida ham o'rganilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqotlardan ko'rinadiki, haligacha frazeologizmlar va paremiologik birliklarni frazeologiyaning obyekt sifatida qarashga oid yondashuvlar mavjud. Bu esa olib borilgan ishlarda frazeologizmlar bilan bir qatorda maqol va matallarning ham birga tahlilga tortilishiga olib kelmoqda. Biroq, maqol va matallarning paremiologiya obyekti ekanligini inobatga olib, frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishda faqatgina frazeologik birliklarni izchil o'rganish mazkur til birliklarining yanada chuqurroq tadqiq etilishiga xizmat qiladi.

AOKFlarni rakurslararo tadqiq qilishda har bir aspektning o'ziga xos yondashuv va tamoyillari bo'yicha aniq yakuniy model ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bunday yakuniy modelni ishlab chiqishda AOKFlarning shakllanish omillarini

alohida qayd etish mexanizm ishlab chiqishning fundamental bosqichi hisoblanadi. AOKFlarning lingvomadaniy jihatlarini o‘rganish har qanday tilning o‘ziga xos unikaligini tavsiflash imkonini beradi. Zero, frazeologik fondida AOKFlar mavjud bo‘lmagan tilning o‘zi yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusamadov, Z.N. (2022). Ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. *Fil. fan. fals. dok. diss.* Toshkent.
2. Al’dinger, O.P. (2006). Frazeonomasticheskaya kartina mira v “Poslovitsakh russkogo naroda” V.I. Dalya. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk.* Smolensk.
3. Apresyan, Yu.D. (1963). Sovremennyye metody izucheniya rezul’tatov i nekotoryye problemy strukturnoy lingvistiki. V knige S.K. Shaumyan (Red.), *Problemy strukturnoy lingvistiki* (ss. 102–148). Moskva: AN SSSR.
4. Babyak, Ye. (2014). Frazeologizm kak lingvokul’turema v kontseptosfere yazykovoy lichnosti. *Naukoviy visnik Uzhgorodskogo universiteta*, 2(32), 33–36.
5. Buslayev, F.I. (1954). *Russkiye posloviy i pogovorki, sobrannyye i posledovatel’nyye.* Moskva: Russkiy yazyk.
6. Dorodneva, N.V., & Yermakova, Ye.N. (2013). Lingvokul’turologicheskiye svoystva frazeologizmov s komponentom-imenem sobstvennogo (na materiale russkogo i angliyskogo yazykov). *Vestnik Yuzhno-Ural’skogo sluzhashchego gumanitarno-pedagogicheskogo universiteta*, 1, 236–246.
7. Gaybullayeva, D.F. (2023). The use of proper names in Uzbek phraseonomastics: A comprehensive classification. *Scholar*, 1(32), 138–144.
8. Humboldt, von W. (1985). *Language and philosophy of culture.* Moscow: Progress.
9. Juraeva, I.A., & Kurbonova, G.S. (2021). Problems of linguo-cultural analysis of phraseological units in the French and Uzbek languages. *Linguistic and Culture Review*, 5(S2), 1291–1307. <https://doi.org/10.21744/lingcure.v5nS2.1798>.
10. Khokhlova, V.A. (2017). Frazeologicheskiy rezul’tat s toponimicheskim komponentom v angliyskom i ukrainskom yazykakh: lingvokul’turologicheskiy aspekt. *Diss. kand. filol. nauk.* Donetsk.
11. Khomutnikova, Ye.A., & Legotina, Yu.V. (2018). Frazeologizmy s komponentom-imenem sobstvennym v angliyskom yazyke: kul’turnospetsifichnyy i semantikogrammaticheskiy aspekt. *Vestnik Kurganskogo gosudarstvennogo sluzhashchego universiteta*, 2(49), 73–77.
12. Kovalenko, Ye.G. (2014). Lingvokul’turnaya spetsifika frazeologii moral’noy sfery lichnosti. *V mire nauki i iskusstva: voprosy filologii, iskusstvovedeniya i kul’turologii*, 1(2(33)), 41–46.
13. Kunin, A.V. (1996). *Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka.* Moskva: Vysshaya shkola.
14. Kurbonova, G.S. (2019). Fransuz va o‘zbek tillaridagi onomastik komponentli frazeologik birliklarning milliy-lisoniy xususiyatlari. *Fil. fan. fals. dok. diss.* Toshkent.
15. Larin, B.A. (1977). *Istoriya russkogo yazyka i obshcheye yazykoznaniye* (izbrannyye raboty). Moskva: Prosveshcheniye.
16. Mamatov, A.E. (2020). *Zamonaviy lingvistika.* Toshkent: “Tafakkur avlodi” nashriyoti.
17. Maslova, V.A. (2001). *Lingvokul’turologiya.* Moskva: Izdatel’skiy tsentr «Akademiya».
18. Mirzayeva, A. (2021). Phytonymic phraseology and linguocultural features of paremiological units. *South Asian Journal of Social Sciences and Humanities*, 2(4), 81–90. <https://doi.org/10.48165/sajssh.2021.2405>.
19. Pinxasov, Y.D. (1969). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Leksikologiya va frazeologiya.* Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.
20. Posoven’, A.N., & Firsova, Ye.V. (2015). Pragmaticheskiy potentsial antroponimov v zaru-bezhnykh frazeologicheskikh yedinitakh. *Yevraziyskiy Soyuz Uchenykh*, 2-3(11), 85–87.
21. Radjabova, M.A. (2020). Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy

- jihati va tarjima muammolari (ingliz, o‘zbek va rus tillari materiallari asosida). *Fil. fan. fals. dok. diss.* Buxoro.
22. Teliya, V.N. (1996). *Russkaya frazeologiya*. Moskva: Yazyki russkoy kul’tury.
 23. Tosheva, D.A. (2017). Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. *Fil. fan. fals. dok. diss.* Toshkent.
 24. Turapova, N. (2020). Lingvokul’turologicheskiy analiz bezekvivalentnykh frazeologizmov yaponskogo i uzbekskogo yazykov. *O‘zbekistonda xorijiy tillar*, 3(32), 60–71. <https://doi.org/10.36078/1595489402>.
 25. Urazmetova, A.V. (2006). Lingvokul’turologicheskiy aspekt izucheniya toponimov v sostave frazeologicheskikh yedinit: na materiale angliyskogo i frantsuzskogo yazykov. *Avto-ref. diss. kand. filol. nauk.* Ufa.
 26. Usmonova, Sh. (2019). *Lingvokulturologiya*. Toshkent: Alisher Navoiy Nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
 27. Vinokur, G.O. (1959). *Izbrannyye raboty na angliyskom yazyke*. Moskva: Uchpedgiz.
 28. Vorob’ev, V.V. (2006). *Lingvokul’turologiya*. Moskva: Rossiyskiy universitet druzhby narodov.
 29. Vrbinc, A., & Vrbinc, M. (2014). Phraseological units with onomastic components: The case of English and Slovene. *Revista de lingüística teórica y aplicada*, 52(1), 133–153. <https://dx.doi.org/10.4067/S0718-48832014000100007>.
 30. Xudoyorova, S. (2021). English and Uzbek toponymic phraseological units: Linguocultural and historical aspects. *International Journal of Linguistics, Literature and Culture*, 7(4), 201–208. <https://doi.org/10.21744/ijllc.v7n4.1426>.
 31. Yermakova, Ye.N., & Marynova, Ye.Yu. (2013). Otrazheniye kul’turno-istoricheskikh traditsiy russkogo naroda v arabskikh frazeologizmax s komponentom-imenem sobstvennogo. *Vestnik Yuzhno-Ural’skogo sluzhashchego gumanitarno-pedagogicheskogo universiteta*, 2, 164–171.
 32. Shapovalova, Ye.O. (2021). Frazeologizmy s imenami sobstvennymi v tekstakh ital’yanskikh smi kak element lingvokul’turnoy identichnosti. *Filologicheskiye nauki. Voprosy teorii i praktiki*, 14(6), 1861–1865.

REFERENCES

1. Abdusamadov, Z.N. (2022). National-cultural characteristics of phraseological units with anthroponymic components in English and Uzbek. *PhD thes. philol. scien.* Tashkent.
2. Aldinger, O.P. (2006). Phraseonomastic picture of the world in “Proverbs of the Russian people” by V.I. Dahl. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Smolensk.
3. Apresyan, Y.D. (1963). Modern methods of studying results and some problems of structural linguistics. In S.K. Shaumyan (Ed.), *Problems of Structural Linguistics* (pp. 102–148). Moscow: USSR Academy of Sciences.
4. Babyak, E. (2014). Phraseologism as a linguacultureme in the conceptual sphere of linguistic personality. *Scientific Journal of Uzhgorod University*, 2(32), 33–36.
5. Buslaev, F.I. (1954). *Russian proverbs and sayings, collected and explained*. Moscow: Russian Language.
6. Dorodneva, N.V., & Ermakova, Y.N. (2013). Linguocultural properties of phraseological units with a proper name component (based on the Russian and English languages). *Bulletin of the South Ural State Humanitarian and Pedagogical University*, 1, 236–246.
7. Gaybullayeva, D.F. (2023). The use of proper names in Uzbek phraseonomastics: A comprehensive classification. *Scholar*, 1(32), 138–144.
8. Humboldt, von W. (1985). *Language and philosophy of culture*. Moscow: Progress.
9. Juraeva, I.A., & Kurbonova, G.S. (2021). Problems of linguo-cultural analysis of phraseological units in the French and Uzbek languages. *Linguistic and Culture Review*, 5(S2), 1291–1307. <https://doi.org/10.21744/lingcure.v5nS2.1798>.
10. Khokhlova, V.A. (2017). Phraseological units with a toponymic component in English and

- Ukrainian languages: Linguacultural aspect. *Cand. philol. scien. diss.* Donetsk.
11. Khomutnikova, Y.A., & Legotina, Y.V. (2018). Phraseologisms with a proper name component in English: cultural-specific and semantic-grammatical aspects. *Bulletin of Kurgan State University*, 2(49), 73–77.
 12. Khudoyorova, S. (2021). English and Uzbek toponymic phraseological units: Linguocultural and historical aspects. *International Journal of Linguistics, Literature and Culture*, 7(4), 201–208. <https://doi.org/10.21744/ijllc.v7n4.1426>.
 13. Kovalenko, Y.G. (2014). Linguocultural specificity of phraseology of the moral sphere of personality. *In the World of Science and Art: Issues of Philology, Art Criticism and Cultural Studies*, 1(2(33)), 41–46.
 14. Kunin, A.V. (1996). *Course of phraseology of modern English*. Moscow: Higher School.
 15. Kurbonova, G.S. (2019). National-linguistic characteristics of phraseological units with onomastic components in the French and Uzbek languages. *PhD thes. philol. scien.* Tashkent.
 16. Larin, B.A. (1977). *History of the Russian language and general linguistics* (selected works). Moscow: Education.
 17. Mamatov, A.E. (2020). *Modern linguistics*. Tashkent: Publishing House of ‘Thought Generation’.
 18. Maslova, V.A. (2001). *Linguocultural studies*. Moscow: Publishing Center of ‘Academy’.
 19. Mirzayeva, A. (2021). Phytonymic phraseology and linguocultural features of paremiological units. *South Asian Journal of Social Sciences and Humanities*, 2(4), 81–90. <https://doi.org/10.48165/sajssh.2021.2405>.
 20. Pinkhasov, Y.D. (1969). *The modern Uzbek literary language: Lexicology and phraseology*. Tashkent: Publishing House ‘Teacher’.
 21. Posoven, A.N., & Firsova, Y.V. (2015). Pragmatic potential of anthroponyms in German phraseological units. *Eurasian Union of Scientists*, 2-3(11), 85–87.
 22. Radjabova, M.A. (2020). Linguistic and cultural aspects of phraseological units with an onomastic component and translation problems (based on materials from English, Uzbek and Russian languages). *PhD thes. philol. scien.* Bukhara.
 23. Shapovalova, Y.O. (2021). Phraseological units with proper names in Italian media texts as an element of linguocultural identity. *Philological Sciences. Theory and Practice Issues*, 14(6), 1861–1865.
 24. Telia, V.N. (1996). *Russian phraseology*. Moscow: Languages of Russian Culture.
 25. Tosheva, D.A. (2017). Linguo-cultural characteristics of proverbs with a zoonymic component. *PhD thes. philol. scien.* Tashkent.
 26. Turapova, N. (2020). Linguoculturological analysis of non-equivalent phraseological units of Japanese and Uzbek languages. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 3(32), 60–71. <https://doi.org/10.36078/1595489402>.
 27. Urazmetova, A.V. (2006). Linguocultural aspect of studying toponyms as part of phraseological units: based on the English and French languages. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Ufa.
 28. Usmanova, Sh. (2019). *Linguoculturology*. Tashkent: Alisher Navo’i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
 29. Vinokur, G.O. (1959). *Selected works on the Russian language*. Moscow: Uchpedgiz.
 30. Vorobyov, V.V. (2006). *Linguocultural studies*. Moscow: Peoples’ Friendship University of Russia.
 31. Vrbinc, A., & Vrbinc, M. (2014). Phraseological units with onomastic components: The case of English and Slovene. *Journal of Theoretical and Applied Linguistics*, 52(1), 133–153. <https://dx.doi.org/10.4067/S0718-48832014000100007>.
 32. Yermakova, Y.N., & Marynova, Y.Y. (2013). Reflection of cultural and historical traditions of the Russian people in Arabic phraseological units with a proper name component. *Bulletin of the South Ural University of Humanities and Pedagogical Sciences*, 2, 164–171